

**ITALYAN VA O’ZBEK TILIDAGI ANTONIM, OMONIM VA SINONIMLARNING
O’XSHASH JIHATLARI.**

Sadikova Bahora

SAMDCHTI

Ispan italyan kafedrasi katta o’qituvchisi.

Naimova Parvina

SAMDCHTI

Italian tili yo’nalishi magistranti.

Kalit so’zlar: *sinonimiya, omonomiya, antonomiya, dominant so’z, omografi, omofoni, ossimoro, antitesi, antifrasি*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada italyan va o’zbek tilidagi antonim, omonim va sinonimlarning o’xshash jihatlari o’rganiladi. Ushbu maqola sinonim antonim va omonimlarning gapdagi vazifasi va o’rnini ham o’rganishga qaratilgan.*

Tilimizda so’zlarning ma’no va mazmun jihatdan o’rganish, tadbiq qilish leksikologiyaning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ma’lum bir yangi so’zning paydo bo’lishi va eski so’zning o’rnini egallashi jarayonida, ushbu so’zlarning orasida leksik, semantik, struktural hamda funksional o’zgarishlarni vujudga keltiradi. Bunday o’zgarishlar italyan tilida „Il cambiamento semantico” (semantik o’zgarishlar) deb ataladi. Italian tilida semantic o’zgarishlar tilshunoslikda so’zlar bilan bog’liq quyidagi hodisalarning kelib chiqishiga olib keladi:

1. Omonimia – shakldoshlik;
2. Sinonimia – ma’nodoshlik;
3. Antonimia – zid ma’nolilik;

Ma’lum bir matnda yoki kontekstda so’zlar bir-biri bilan ma’no va mazmun jihatdan munosabatga kirishadi. Italian tilida bir-biriga qarama-qarshi hamda bir birini rad etuvchi so’zlar „contrary” yoki „opposti” (qarama-qarshi so’zlar) deb ataladi. O’zbek tilida esa bular antonimlar deb yuritiladi. Masalan, alto – basso (uzun- kalta), brutto – bello (chiroyli – xunuk), facile – difficile (oson – qiyin) va boshqalar.

Umumiy jihatda bunday qarama- qarshi so’zlar uch turga bo’linadi:

1. Antonomia
2. Complementarita`;
3. Inversi

Antonimlar. Italian tilida so’zlarning qarama-qarshi ma’nolarini izohlash zinapoyaga qiyoslanadi. Ya’ni antonimlar bu zinapoyaning eng yuqori va eng quyi nuqtalari hisoblanadi. Masalan, „sovuv / issiq”. Bu zinapoyaning orasida o’rtacha darajadagi ma’nolar ham mavjud bo’lib ular maxsus qo’shimcha so’zlar bilan izohlanadi. Masalan, „juda sovuq, biroz sovuq, biroz issiq, juda issiq” va boshqalar.

Italian tilida ham o'rtacha darajadagi so'zlarning boshqa tillar kabi maxsus leksemalari mavjud. Masalan, tiepido – iliq, fresco – yaxtak, gelido – muz va boshqalar. Tilshunoslikda bu turdag'i darajalanish xususiyatiga ega bo'lgan antonimlar asliy antonimlar deb ataladi.

Complementari o antonimi bipolari: Complementari ya'ni nisbiy antonimlar italyan tilida bir-birini to'ldirib turuvchi, biri ikkinchisisiz mavjud bo'la olmaydigan antonimlarga nisbatan aytildi. Masalan, „vivo (tirik) – morto (o'lik)”. Nutq jarayonida so'zlovchi bunday antonimlarning o'rtacha darajadagi sifatlarini akslantira olmaydi hamda bu turdag'i antonimlar darajalanish xususiyatiga ega emas. Masalan, „molto morti – juda o'lgan” deb aytish noto'g'ri.

Inversi o conversi: Inversi ya'ni juftlashgan antonimlar semantik jihatdan bir xil munosabatga kirisha oladigan, ba'zi bir jihatlari bilan uyadosh so'zlarga mansub bo'lgan, ammo bir-birini rad etuvchi qarama-qarshi so'zlarga nisbatan aytildi. Ular ham nisbiy antonimlar singari darajalanish xususiyatiga ega emas. Masalan, „femmina – maschio (ayol – erkak), padre – madre (ota – ona), prima – dopo (avval – keyin), dare – ricevere (bermoq –olmoq)” va boshqalar.

Sinonimiya bu so'zlar va iboralar o'rtasida o'zaro o'xshash yoki bir xil ma'noga ega bo'lgan bog'lanishdir. Boshqa so'z bilan aytganda, agar ular almashtirilganda gap yoki matnning ma'nosi o'zgarishsiz qolishi mumkin bo'lsa, ular sinonimlar deb hisoblanadi. “go'zal- chiroyli”, “xunuk- badbashara”.

Tildagi barcha so'zlarning sinonimi mavjud deb hisoblanadi. Ammo bu doimo ham mos kelmaydi. Masalan italyan tilidagi “pera” ya'ni nok so'zini oladigan bo'lsak, nok so'ziga sinonim tilda mavjud emas. Bu kabi so'zlarning ro'yxati anchagina. Bu kabi so'zlar va odatlar o'zbek tilida ham mavjuddir.

Sinonimlar har bir til uchun juda muhim hisoblanadi. Chunki ular tilni go'zal qilishga, mazmunan boyitishga va takrorni ya'ni so'zlarni qayta-qayta takrorlanmasligini oldini oladi.

Italian tilida sinonimlarning quyidagi turlari mavjuddir.

1. I sinonimi perfetti
2. I sinonimi parziali
3. I sinonimi contestuali
4. I sinonimi formale e informale
5. Sinonimi regionale e dialettale

I sinonimi perfetti ya'ni murakkab sinonimlar, ular har bir kontekstda bir xil ma'noga ega bo'ladi va gapning ma'nosi o'zgartirmagan holda bir-biri bilan alamshtirish mumkin. Masalan “casa- abitazione” ya'ni uy va turar joy.

I sinonimi parziali ya'ni qisman sinonimlar. Bular ma'noning faqatgina bir qismida o'rtoqlashuvchi sinonimlardir. Ba'zi kortekstlarda almashtirib bo'lar, lekin barcha kontekstlarda almashtirib bo'lmaydi. Masalan “casa- residenza” uy- turargoh. Ikkovida ham odamlar yashaydi ammo har xil holatda.

I sinonimi contestuali ya’ni bular konteksli sinonimlar bo’lib, asosan kontekstlarda mos keladi. Masalan “felice- contento” baxtli va mamnun. Ammo “contento” “felice” dan ko’ra norasmiy bo’lishi mumkin.

I sinonimi formale e informale ya’ni rasmiy va norasmiy sinonimlar. Bu sinonimlar ko’proq rasmiy til uchun mos keladi. Kunlik doimiy ishlatiladigan so’zlarimiz norasmiy hisoblanadi. Masalan “eseguire-realizzare” bajarmoq so’zalari bular ramiydir. “fare” qilmoq esa bu so’zlarning sinonimi ammo norasmiy.

I sinonimi regionale e dialettale ya’ni mintaqaviy va dialect so’zlar. Ba’zi so’zlar ma’lun mintaqada yoki dialektlarda sinonim bo’lishi mumkin, lekin boshqa holatlarda

Omonimiya so’zi, omonimlar yoki bir xil shaklga ega bo’lgan lekin farqli ma’noni ifodalovchi so’zlar to’plamini anglatadi. Bu so’zlar, shakli bir xil bo’lgan, lekin ma’nosи farqli bo’lgan so’zlar yoki so’zlar guruhini ifodalaydi. Omonomia, leksikologiya va morfologiya sohasida keng qo’llaniladi. Tilning tuzilishi va so’zlar orasidagi munosabatlarni o’rganishda muhimdir. Omonomia, ko’p tillarda uchraydi va so’zlar orasidagi farqlarni tushuntirish uchun dastlabki qadam bo’ladi. Bunga misol qilib “banco” so’zini oladigan bo’lsak. U bitta so’z bo’lsada, ikki xil ma’noda keladi.

Banco- bank ma’nosida

Banco – o’tiradigan stol ma’nosida.

Yoki o’zbek tilida ot omonimini oladigan bo’lsak, u bir necha xil ma’noni ifodalashi mumkin.

Ot – ism

Ot – otmoq fe’l

Ot – ot hayvon ma’nosida

Buni qaysi ma’noda kelganini bilish uchun kontekstga murojat qilamiz. O’sha orqali bizda tushuncha va aniq ma’no paydo bo’ladi.

Omonimlar asosiy quyidagi 2 turga bo’linadi.

1. Omonimi omografi

2. Omonimi omofoni

Omonimi omografi bu nomidan bilsak bo’ladiki, grafika shakl bir xil bo’ladi, ammo ma’nosи butunlay boshqacha bo’lgan omonimlardir. Ular yozilayotganda chalkash bo’lishi mumkin, ammo kontekst ularni ajratib turadi. Masalan “sole” so’zini oladigan bo’lsak,

Sole- bu quyosh degani. Ot so’z turkumiga oid

Sole- bu soletto fe’li, yolg’iz bormoq ma’nosida kelyapti

Omonimi omofoni bu tovush va talaffuz bir xil, ya’ni ma’no jihatdan ham bir-biriga yaqin so’zlardir. Masalan bunga quyidagi so’zlarni misol qilib olsak bo’ladi.

Cieco –bu ko’r odam ma’nosida

Cieco –ikkinchi ma’nosи nурдан mahrum degani

Dunyo turli-tumanlik hamda ran-baranglikdan iboratdir. Antonimlar matn hamda nutq jarayonlarida ishtirok etib, ushbu rang-baranglikni namoyon qilish uchun xizmat

qiladi. Tildagi barcha so'zlarning antonimlari bor deb aytish joiz emas, balkim tillarning lug'at boyligida antonim bo'lmaydigan so'zlarning soni ko'p. Shu jumladan: "nok, qalam, daftar"; italian tilida: "il cane, la penna, il libro" kabi so'zlarning antonim varianti mavjud emas.

Masalan o'zbek tilida no-, be-, -siz kabi qo'shimchalar yordamida so'zlar orasida antonimlar hosil qilinadi." xabardor -bexabar", "layoqatli-layoqatsiz", "to'g'ri noto'g'ri". Bundan tashqari fe'l so'z turkumiga oid so'zlarga -ma qo'shimchasi qo'shilishi natijasida antonimlar hosil bo'ladi: "kel-kelma" "qil-qilma", "yoz- yozma" kabi. Ingliz tilida non so'zi so'zlarda mana shunday zidlik ma'nolarini hosil qilish uchun xizmat qiladi. Bu ikki turdag'i antonimlar dunyodagi barcha tillarda mavjuddir

Sinonimlar tilni boyitadi, nutqimizni obrazli qiladi. Sinonimlar turli funktional va uslubiy rangga ega bo'lishi mumkin.

Kitobxon asarni o'qish jarayonida antonimik ifodalar ta'sirida obrazlarni ruhan his qiladi, shaxsan asar qahramoni sifatida obrazlar tarkibida ishtirok etadi.

Italian adabiyotida antonimik tasviriy vositalar quyidagilar:

- Antifrase - „L'hai picchiato a sangue, ma come sei bravo(violente)!“ – „qoni chiqquncha urding-a, qanday zo'rsan!“. Aslida „bravo“ (zo'r) iborasi o'rnida „violente“ (vaxshiy) so'zi ishlatilishi lozim.

- Antitesi- „Pace non trovo, e non ho da far guerra e temo, e spero, ed ardo e sono un ghiaccio“ – tinchlikni topolmayman ammo urushishga sabab yo'q, qo'rqaman, o'ylab, otash bo'lib yonaman lekin aslida muzman. Antitesi qo'llanilgan ushbu qo'shma gapda ikki marta zid ma'noli birliklar ishlatilgan bo'lib, ular „pace“ (tinchlik) – „Guerra“ (urush), „ardo“ (otash) – ghiaccio (muz).

- Ossimoro- „Comprando e vendendo bachi da seta“, Herve` Joncour guadagnava ogni anno un cifra sufficiente per assicurare a se e a sua moglie quelle comodita` che in provincia si e` inclini a considerari lussi...“ Matnda qo'llanilgan „comprando“ (comprare-sotib olmoq) hamda „vendendo“ (vendere-sotmoq) so'zları asar qahramonining qaysi kasb bilan shug'ullanishini yaqqol ko'rsatib bergen. Ya'ni bu ossimoro asarda ahamiyatsiz emas. Yozuvchi obrazning sifatlarini to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmay, asarning emotisionalligini oshirish, oddiylikdan qochib, badiiy uslubiyatni yaratish maqsadida ushbu tasviriy ifodadan foydalangan.

Antonimiya hodisasi antitezi, ossimoridan farqli ravishda ma'lum bir gapli ifodalar o'rtasida vujudga kelgan. „paradiso“ (jannah) hamda „inferno“ (do'zax) bir-

biriga qarama-qarshi so'z bo'lib, ularga tegishli frazalar ham antonimiya hodisasini namoyon qilgan.

Antonimiya hodisasi italyan tili va adabiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, nutqning boyishi uchun xizmat qiladi. Bu kabi holatlar o'zbek adabiyotida mavjud

Takror bu tilning eng ojiz tomonidir. Sinonimlar matn ichida bir xil so'zlarning ortiqcha takrorlanishini oldini olishga imkon beradi. Bu esa matnni o'qivchi uchun yanada jo'shqin va qiziqarli qiladi. Sinonimlarni qo'llashda ham biz har bir sinonim

so'zlarga etiborli bo'lishimiz lozimdir. Aks holda ma'noni kuchaytiraman yoki bo'yodkor qilaman deb, uni mazmunan buzib qo'yishimiz mumkin.

Masalan "parlare" so'zini oladigan bo'lsak. La professoressa ha parlato con gli student...ushbu gapda parlare so'ziga – comunicare, chiacchierare, spettegolare, prendere la parola kabi so'zlar sinonim bo'la oladi. Ammo ushbu gapda barcha sinonimlarni qo'llab bo'lmaydi. Chiacchierare va spettegolare bu asosan so'zlashuvda ishlatalichiab, tengdoshlar suhbatida keng qo'llanilishi mumkin. Masalan: ho chiacchierato con I amici – men do'stlarib bilan chaqchaqlashdim. Ushbu gap bilan yuqoridagi gapning farqi mavjud. Yani barcha sinonimlar ham barcha joyda qo'llanilib bo'lmaydi. La professoressa otiga chiacchierare fe'li mos kelmaydi. Bu yerda bo'yodkorlik yuqoladi. Professor chaqchaqlashmaydi, balki aytadi.

Omonomiya hodisasi ham italyan tilida keng tarqalgan bo'lib, u gapdag'i ma'nolarni yanada kuchaytiradi. Shaxslarni va o'quvchini diqqatini oshiradi. Ko'pincha omonimlarni muloqot jarayonida aniqlab olamiz. Omonimiya hodisasida omonim so'zlarning qo'shni so'zları ham muhim ahamiyatga ega, chunki biz o'sha so'zalr orqali yoki gaplar orqali omonim so'zning asl ma'nosini aniqlab olamiz. Masalan bunga misol qilib, italyan tilidagi "letto" so'zining oladigan bo'lsak. Bu omonim so'z va ikki xil ma'no anglatadi. Birinchi ma'no – yotoq; ikkinchi mano- leggere fe'li participio passato-letto. Uning yonidagi so'zları orqali yoki gap orqali ajratishimiz mumkin.

Io ho letto il libro – leggere fe'l sifatida

Io dormo sempre il mio letto- kravat, yotoq ot sifatida

Italian tilida hamda o'zbek tilida antonimiya, omonomiya va sinonimiya hodisalarining qo'llanilishi o'rtasida umumiy bog'liqliklar mavjud. Xususan, antonimiya, sinonimiya va omonomiya hodisasi o'zbek va italyan tilida umumiy jihatdan bir xil tushuncha darajasida o'rganiladi. So'zlashuv nutqida va badiiy adabiyotda ular o'rtasidagi bog'liqlik keskin darajada farq qilmaydi. Xulosa qilib aytganda, ayni paytda antonimiya, omonomiya va sinonimiya hodisalari butun dunyo tilshunoslari tomonidan tadqiq qilinayotgan dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Tilshunoslar antonim, sinonim va omonim so'zlarning belgilash me'zonlari borasida hali aniq xulosalarni qabul qilishgan emas.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Azim Hojiyev .O'zbek tili haqida Toshkent 2000
- 2.Sodiqov .A O'zbek tili grammatikasi T.1975, 1981.
- 3.Dadaboyeva H.A Tilshunoslik nazariyasi va matadologiyasi T 2004.
- 4.Tilshunoslikga kirish .Qo'llanma .Xolmonova Z.T.T 2000
5. Ambroso S. Stefancich G. Parole 10 percorsi nel lessico italiano. – Roma: Bonacci editore. 2002. –P. 12-22.

6. Dachille P. Sintassi del parlato e tradizione scritta della lingua italiana. – Roma:
Edizione. 1990. –P. 388.